



PHARMACOLOGICAL ACTIVITY OF COMMON PEACH (PERSICA VULGARIS MILL.)

Abdurasulieva Gulshad Makhsetbayevna

Karakalpakstan Medical Institute
gulshadabdurasulieva@gmail.com

ORCID ID <https://orcid.org/0009-0004-8849-2456>

Farmanova Nodira Taxirovna

Tashkent Pharmaceutical Institute

ORCID ID <https://orcid.org/0000-0002-0250-3379>

Berdimbetova Gulsara Esenovna

Karakalpakstan Branch of the Academy of Sciences of the Republic of
Uzbekistan Karakalpak Scientific Research Institute of Natural Sciences

ORCID ID 0000-0002-3875-302X

Badritdinova Matluba Najmidinovna

Bukhara Medical Institute

ORCID ID 0000-0002-7814-4106

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17054487>

ARTICLE INFO

Received: 25th August 2025

Accepted: 30th August 2025

Online: 31st August 2025

KEYWORDS

*Common peach, antioxidant,
cosmetology, dietology.*

ABSTRACT

*As we know, common peach (*Persica vulgaris* Mill.) is widely distributed throughout the world and is distinguished by its biologically active substances and their effective effects. As a result of the analysis of foreign and domestic literature, common peach (*Persica vulgaris* Mill.) is of particular importance as a promising plant, exhibiting antioxidant, antibacterial, antimicrobial, anti-allergic and anti-inflammatory, anticarcinogenic, and antiviral effects. This article presents information on the pharmacological activity of common peach (*Persica vulgaris* Mill.) studied by scientists.*

ODDIY SHAFTOLI (PERSICA VULGARIS MILL.) NING FARMAKOLOGIK FAOLLIGI

Abdurasuliyeva Gulshad Maxsetbayevna

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti. gulshadabdurasulieva@gmail.com

ORCID ID <https://orcid.org/0009-0004-8849-2456>

Farmanova Nodira Taxirovna

Toshkent farmatsevtika institute. ORCID ID <https://orcid.org/0000-0002-0250-3379>

Berdimbetova Gulsara Esenovna

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot institute. ORCID ID 0000-0002-3875-302X

Badritdinova Matluba Najmidinovna

Buxoro tibbiyot institute. ORCID ID 0000-0002-7814-4106

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17054487>

ARTICLE INFO

Received: 25th August 2025

Accepted: 30th August 2025

Online: 31st August 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

*Bizga ma'lumki, oddiy shaftoli (*Persica vulgaris* Mill.) butun dunyoda keng tarqalgan bo'lib, tarkibidagi biologik faol moddalari va ularning samarali ta'siri bilan ajiralib turadi.*



Oddiy shaftoli, antioksidant, kosmetologiya, dietologiya.

*Xorijiy va mahalliy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida oddiy shaftoli (*Persica vulgaris* Mill.) antioksidant, antibakterial, mikroblarga, allergiyaga va yallig'lanishga qarshi, antikanserogen, antivirus ta'sirlarini namoyon qilishi bilan istiqbolli o'simlik sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada oddiy shaftoli (*Persica vulgaris* Mill.) ning olimlar tarafidan o'rganilgan farmakologik faolligi to'grisidagi ma'lumotlar keltirilgan.*

KIRISH. Hozirgi paytda turli xil ekologik omillar, hayotiy stresslar, infeksiyalar, viruslar ta'sirida organizmda immun tizimining susayib ketishi va har xil kasalliklarga olib kelishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, quyosh nurlarining doimiy uzoq ta'siri natijasida (UB) nurlanish saraton kasalligining kelib chiqishiga va terining qarishiga sababchi bo'lishiga olib keladi. Bu borada tibbiyot va farmatsevtikaning dolzarb muammolaridan biri xom ashyo bazasi yetarli va samarali farmakologik faollikka ega bo'lgan dorivor o'simliklarni izlab topishdan iboratdir [1; 2].

TADQIQOT MAQSADI. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris* Mill.) ning farmakologik faolligi to'grisidagi xorijiy va mahalliy **adabiyotlar ma'lumotlarni tahlil** qilish.

MATERIAL VA USULLAR. Tadqiqot materiallari ochiq matbuotda chop etilgan mahalliy va xorijiy mualliflarning maqolalaridagi ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni umumlashtirish.

MUHOKAMA.

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris* Mill.) mevalari va barglari kuchli antioksidant ta'sirini hisobga olgan holda tibbiyotda islatishga keng tavsiya etiladi [1].

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris* Mill.) ni Gippokrat, Galen, Ibn Sino va Dioskorid bir qator kasalliklarni davolashda tavsiya etishgan. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" (III-tom) asarida bayon etilishicha, oddiy shaftoli mevalari oshqozon muhitini yaxshilash, bosh og'rig'i va quloq og'rig'ini davolashda juda yaxshi samara beradi (...pishgan shaftoli oshqozonni yumshatadi, pishmagan shaftoli esa tuzatadi) [3,8]. Shuningdek, Ibn Sino shaftoli barglarining sharbatini yallig'lanishga, qorin bo'shlig'idagi va quloqdagi qurtlarga qarshi tavsiya qilgan. Bitishi qiyin bo'lgan yaralar uchun ko'krak tugunlarida (saratonida), tildagi har xil o'smalarda yangi terilgan shaftoli mevasi bilan tilning shishgan joyini ishqalab davo qilingan [2,3].

Kanzi Shifo o'zining "Irfon" nomli asarida shaftoli olxo'ri kabi organizmdagi keraksiz, zaharli moddalardan tozalashga yordam beradi, yani tozalash xususiyatiga ega deb bayon etgan, diatezda qovurilgan shaftoli urug'larini tavsiya etgan. Buning uchun maydalangan shaftoli urug'ini suv bilan namlab yuz terisi va bolalar terisiga surtilgan.

Gyandjevi Nizami pishmagan shaftoli mevalarini ".....organizmning faolliyatini oshiruvchi" sifatida foydalangan, shaftoli barglarini esa teri kasalliklarida (ekzema, dermatit) davolovchi xususiyatlari borligini ko'rsatgan.

Armanistonning taniqli tabibi Amirdavlat (XV asr) o'z asarlarida 1700 dan ortiq o'simlikning tavsifini keltirib, ularning ichida shaftoli mevalari va barglarining foydali xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tgan. Shaftoli o'simligini hamma joyda ekib o'stirishni tavsiya etib, undan nafaqat manzarali daraxt sifatida, balki dori-darmonlarni tayyorlashda tavsiya qilgan [3].



Oddiy shaftoli barglari va gullari antibakterial, mikroblarga, allergiyaga yallig'lanishga qarshi, antikanserogen va antivirus ta'sirlarini namoyon qilishi adabiyotlarda keltirilgan. Shuningdek, uning spirtli ekstrakti (*Mycobacterium tuberculosis*) sil kasalligida tavsiya qilinadi [4, 5, 6, 8, 9, 11].

Bundan tashqari, antioksidant ta'sirini inobatga olib kosmetika sanoatida oddiy shaftoli istiqbolli tur hisoblanadi. Misrda *Prunus persica* (L.) barglaridan tabiiy kosmetik vosita bo'lgan yuz uchun krem (PPEE-SLNS cream formula) ishlab chiqilgan. Ushbu krem UB-nurlanish natijasida teri qarishini va giperpigmentatsiyani oldini olish, terinioziqlantirish va teri o'tkazish xususiyatlarini yaxshilaydigan mutloq zararsiz vosita deb topilgan [1].

Tojikiston xalq tabobatida oddiy shaftoli barglaridan qandli diabetda va antigement vosita sifatida ishlatiladi. Oddiy shaftoli barglaridan tayyorlangan atala teridagi yiringli yaralar, xuppazlar, kuyishlar, ekzema, allergik toshmalar, neyrodermatitlarni davolashda, ularning damlamasi va yangi sharbati esa bosh og'rig'i va revmatizmni davolashda tavsiya qilingan [5, 6].

G.M.Safonova tomonidan shaftoli barglari asosida suyuq ekstrakt olinib (patent RF 2 308 961, 2007), uni yallig'lanishga qarshi, ko'z kasalligi, o'sma jarayonlari, yurak qon-tomir tizimi kasalliklari, ikkilamchi immunitet tanqisligi holatlarini davolash va oldini olish uchun umumiy mustahkamlovchi vosita sifatida tavsiya qilingan [7].

V.A.Patotskiy, A.A.Pleshakov, O.A.Afonina va V.M.Doroginalar tomonidan "Perstevit" tomchi shakldagi biologik faol qo'shimcha (patent RF 2 332 866, 2008) tarkibi ishlab chiqilib (oddiy shaftoli barglari va gullari, steviya o'simligi ekstrakti) u immunomodulyator, o'smaga qarshi, antioksidant va adaptogen ta'sirlarga ega ekanligi isbotlangan [12].

Lokesh Deb, Ravi Gupta, Amitsankar Dutta, Akhilesh Yadav, Debjit Bhowmik, K.P. Sampath Kumarlar (Institute of Bioresources and Sustainable Development, India, 2010) lar oddiy shaftoli barglarining suyuq ekstraktini kuchli antioksidant ta'sirga ega ekanligini aniqladilar va uni yallig'lanishga qarshi hamda organizmni tez tiklanishiga tavsiya qildilar [13].

S.N.Pjatakov va S.R.Fedosovlar oddiy shaftoli barglaridan iborat "Perleks" (patent RF 2445 113, 2012) suyuq ekstraktiga patent olishgan. Ushbu ekstrakt shamollash, yallig'lanishga qarshi va yaralarni tuzatuvchi ta'sirlarga ega [14].

Nitin Kumar, Anurag Chaudhary (Bhagwant University, India, 2015) lar tomonidan oddiy shaftoli barglarining etanol ekstraktining faolligi (60 mg/ml) etilatsetat ekstraktiga nisbatan kuchli ekanligini va uni kuchli Askarida gijja qurtini chiqazishda samarali natija berishni aniqlashgan [15].

X.Sh.Sharifov (Milliy farmatsevtika universitet, Ukraina, 2018) shaftoli barglari quyuq ekstrakti immunomodulyator, yallig'lanishga qarshi, antioksidant va stressdan himoya qiluvchi ekanligini tajribalar yordamida isbotlagan [16].

I.Yu.Mamatova, I.R.Asqarov va M.X.Mamaraxmonov (Andijon davlat universiteti, 2020) lar shaftoli barglari va gullari spirtli suyuq ekstraktini antioksidant, mikroblarga va sil kasalligiga qarshi (*Mycobacterium tuberculosis*, *E. Coli*) ta'sirlarini o'rganishgan hamda shaftoli gullari ekstraktining ta'siri shaftoli bargi ekstraktiga nisbatan samarali ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shaftoli gullari ekstrakti barg ekstraktlarining kimyoviy tarkibi bilan solishtirilganda ko'proq flavonoidlar va taninlarni o'z ichiga oladi [6].



Shu bilan birga, shaftoli mevalari va barglarining shamollashda, buyrak faoliyatini me'yorlashtiradi, jigar faoliyatini yaxshilaydi, kapillyar qon tomirlarni mustahkamlovchi sifatida, saraton kasalligida (ko'krak va yug'on ichak sarotoni), revmatizmدا tavsiya qilinadi [10].

Oddiy shaftoli barglari tinchlantiruvchi vosita sifatida ham foydalaniladi. Yangi quritilgan shaftoli barglaridan gastrit, ko'k yo'tal, surunkali bronxitni davolashda tavsiya qilingan [17].

Oddiy shaftoli urug'laridan surgı vosita sifatida, revmatizm kasalligida, qon tomirlarini kengaytiruvchi (spazmolitik) vosita sifatida, qon ketishda ishlatiladi. Bundan tashqari, yuqori qon bosimi va anemiyani davolashda ishlatilgan.

Xalq tabobatida shaftoli gullari va barglari damlamasidan qandli diabetni va yangi sharbatidan bosh og'rig'i, revmatizmni davolashda qo'llanilgan. *Prunus persica* (L.) gullaridan diuretik va anuriyada ishlatilgan. Shaftoli mevasi sharbatini qovuqdagi toshlarni erituvchi, gipertoniya, qusishga qarshi, chanqoqni bosuvchi, ovqat hazm qilishni yaxshilashga buyuriladi [9].

Oddiy shaftolidan olingan moy ilmiy tibbiyotga ham tavsiya qilingan. Xususan, XI Davlat Farmakopeyasiga, Rossiya, Ukraina, O'zbekiston Respublikasi Davlat farmakopeyalariga kiritilgan. Dorivor va kosmetik maqsadlarida ishlatiladigan shaftoli moyi inyeksion moyi hisoblanadi, shuningdek yaralarni, kuyishlarni davolashda va terilarni tez tiklanishida yordam beradi. Dorivor va kosmetik maqsadlarda ishlatiladigan shaftoli moyi meva urug'idan olinadi. Kosmetologiyada teri ajinlarini ketkazadi, terining elastikligini tiklash uchun krem tarkibiga qushiladi [1,3].

Hozirgi davrda oddiy shaftoli asosida bir qator dori vositalar (DV) va biologik faol qo'shimchalar (BFQ) ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ro'yxati 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris* Mill.) barglari asosidagi BFQ va dori vositalari

No	BFQ va DV nomi	Tarkibi	Dori shakli	Tibbiyotda ishlatilishi	Ishlab chiqaruvchi
1.	"Oleksin" BFQ	Flores et folia Persica vulgaris Mill.	suyuq ekstrakt	Saratonga qarshi, immunomodulyator	NPO "Biomed", 1999. (patent RF 2132 197)
2.	Oddiy shaftoli bargi (QE, DV)	Folia Persica vulgaris Mill.	tabletka	Antioksidant, saratonga qarshi, immunomodulyator	NPO "Biomed" RF, 2004 (patent RF 2 224 535)
3.	"Aleksiniya" BFQ	Folia Persica vulgaris Mill. Quruq ekstrakti, stevia, Spiraea ulmaria L.	flakon tabletka	Antioksidant, immunomodulyator, y allig'lanishga qarshi, og'riq qoldiruvchi, saratonga qarshi	"Aleksiniya" MChJ, RF, 2023.
4.	"Persifen" BFQ	Folia Persica vulgaris Mill. quruq ekstrakt	kapsula	Immunomodulyator, stressga qarshi, teri va shilimshiq qavatining	"Artlayf" MChJ, RF, 2009.



				tiklanishini ta'minlaydi	
5.	"Akan" BFQ	Foli et fructus Juglandis nigae, folia Persica vulgaris Mill., radices Arctii lappae, flores Sambuci nigae, folia Lourocerasi officinalis, folia Thujae occidentalis	flakon, sirop	Saraton kasalligi rivojlanishi havfini kamaytiradi, detoksikasiya faolligini namoyon qiladi, organizmning mehnat faolliyatini kuchaytiradi	"Vitaukt" MChJ, RF, 2016.
6.	"Safol" BFQ	Prunus persica, Eleutherococcus senticosus, Echinacea purpurea	tomchi shaklidagi sirop	Saratonga qarshi, immunomodulyator virus kasalliklarida keng qo'llaniladi	"Elmaris" MChJ, RF, 2016. (patent RF 2598 349)
7.	"Flavopersin" BFQ	Folia Persica vulgaris mill., folia Hippophae L., folia Vaccinium vitis-idaea quruq ekstraktlari	kapsula va tomchi	Immunomodulyator, saraton kasalligini oldini olish va hayot sifatini yaxshilaydi	"Milamed" RF, 2020. (patent RF 2717 537)
8.	"Shanaz" Shaftoli moyi BFQ	Shaftoli moyi: Vitaminlar: A, B, E, P va yog' kislotalari	flakon	Massaj, yuz terisi, lablar, tirnoq parvarishiga ishlatiladi	"Shanaz" MChJ, Uzbekiston
9.	"Peach Kernel oil" BFQ	Mayan's Secret shaftoli moyi, atirgul moyi, geranium efir moyi	flakon	Massaj, yuz terisi, lablar, tirnoq parvarishiga ishlatiladi	"Mayan's Secret" Italiya
10.	"Persikovoe maslo" kosmetik moyi BFQ	Shaftoli moyi, vitamin C, shaftoli moyi "Flavor pluse" ekstrakta asosida rozmarin	flakon	Massaj, yuz terisi, lablar, tirnoq parvarishiga ishlatiladi	"Oleos" Rossiya
11.	"Praskova" Prunus persica cold-pressed oil BFQ	Shaftoli moyi	flakon	Massaj, yuz terisi, lablar, tirnoq parvarishiga ishlatiladi	"Budjak" Turkiya
12.	"Peach Kernel oil" BFQ	Shaftoli moyi, linolen va olein kislotalari, E vitamini, B-guruh vitaminlari	flakon	Massaj, yuz terisi, lablar, tirnoq parvarishiga ishlatiladi	"Chateau cosmetics botanical beauty" Miami, Florida 33009 USA



13	“СЭЛПЕПС-КР” BFQ	Shaftoli bargi, flavonoidlar, organik kislota, vitaminlar C va B guruh	Kapsula Sashe tabletka	Immunomodulyator, antioksidant, yallig'lanishga qarshi	“Halsica” MCHJ Uzbekistan
14	“Аntioxy-NTF” BFQ	Shaftoli bargi, Na'matak mevasi, Tirnoqgul gullari, Dalachoy yer ustki qismi	Kapsula Sashe tabletka	Immunomodulyator, antioksidant, yallig'lanishga qarshi	“Halsica” MCHJ Uzbekistan
15	“Иммун-PR” BFQ	Shaftoli bargi, Na'matak mevasi	Kapsula Sashe tabletka	Immunomodulyator, antioksidant, yallig'lanishga qarshi	“Halsica” MCHJ Uzbekistan

1-jadvaldagi ma'lumotlardan kurinib turibdiki, oddiy shaftoli asosida bir qator preparatlar va BFQ tarkiblari ishlab chiqilgan. Ular orasida mahalliy BFQ lar 4 ta bo'lib, ulardan 3 tasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqlim sharoitida o'stirilgan oddiy shaftoli barglari asosida yaratilgan tarkiblar hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) o'simligining xomashyosi ya'ni barglari va gullari tibbiyotda juda katta ahamiyatga ega bo'lib, uni kelajakda yangi manba sifatida chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqligini alohida qayd qilish lozim.

References:

1. Mostafa, E.S., Maher, A., Mostafa, D.A., Gad, S.S., Nawwar, M.A.M., Swilam, N. A. A Unique Acylated Flavonol Glycoside from *Prunus persica (L.) var.* Florida Prince: A New Solid Lipid Nanoparticle Cosmeceutical Formulation for Skincare. //Antioxidants 2021. 10. 436. <https://doi.org/10.3390/antiox10030436> Academic Editors: Yong Chool Boo Received: 24 February 2021 Accepted: 8 March 2021 Published: 12 March 2021;1-16.
2. Abu Ali Ibn Sino Tib qonunlari" III-kitob birinchi jild, ikkinchi nashri, O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. -Toshkent, 1979;78,358,567,603.
3. Исторический опыт и перспективы использования сырья персика в медицине и фармации. Савенкова Анна Борисовна, Нестерова Надежда Викторовна. Секция фармацевтические науки. //Студент года 2019; 340-342.
4. Ravi Kant., Rishi Kumar Shukla., Abha Shukla. A Review on Peach (*Prunus persica.*): An Asset of Medicinal Phytochemicals International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology (IJRASET).Volume 6 Issue I, - Available at www.ijraset.com. January 2018; 2186.
5. Денисова М.О. Перспективы использования в медицине листьев персика, культивируемого в Крыму // Молодые ученые в решении актуальных проблем науки. 63-65.
6. Mamatova I.Yu., Askarov I.R., Mamaraxmonov M.X. Antituberculosis, Antimicrobial and antioxidant properties of *Persica vulgaris L.* Extracts. // Biomedical Chemistry: Research and Methods e00125. DOI: 10.18097/bmcrm00125. 2020. 3(2);1-3.



7. Сафонова Г.М., Дуняшева Е.А. Российская Федерация патент ⁽¹⁹⁾RU⁽¹¹⁾ 2308961⁽¹³⁾C2. Бюл. №30.27.10.2007;3-6.
8. Савенкова А.Б., Нестерова Н.В. Разработка макро-и микродиагностических признаков в сырье листьев персика обыкновенного персика обыкновенного (*Persica vulgaris Mill.*) // Медико-фармацевтический журнал "Пульс"Российская Федерация, Vol. 23. 2021. №1;48-50.
9. Карабаева Р.Б., Ибрагимов А.А., Назаров. О.М. Компонентный состав эфирного масла *Prunus Persica var. Nectarine*, произрастающего в Узбекистане. //Химия растительного сырья. 2020. №4;165-168.
10. Nancy Tripathi, Surajpal Verma D, Manish Vyas, Narendra Singh Yadav, Subhajit Gain, Gopal Lal Khatik Nanoformulations of quercetin: a potential phytochemical for the treatment of uv radiation induced skin damages. // Brazilian Journal of Pharmaceutical Sciences Sci. 58: e18744. 2022;1.
11. Tae-Yong Shin, Seung-Bin Park, Jin-Su Yoo, In Kyeom Kim, Hyun-Shik Lee, Taeg Kyu Kwond, Moon Kyu Kim, Jung Chul Kim and Sang-Hyun Kim. Anti-allergic inflammatory activity of the fruit of *Prunus persica*: Role of calcium and NF-jB. // Food and Chemical Toxicology. 48; 2797-2802.
12. Потоцкий В. А., Плешаков А. А., Афонина О. А., Дорогина В. М. Российская Федерация патент ⁽¹⁹⁾RU⁽¹¹⁾ 2332866⁽¹³⁾ C2. 10.09.2008. Бюл. №25; 4-5.
13. Deb L, Gupta R, Dutta AS, Yadav A, Bhowmik D, Kumar KP. Evaluation of antioxidant activity of *Prunus persica L. aqueous extract*. Pharm Sin1(3). 2010;157-64.
14. Пжатаков С.Н., Федосовлар С.Р. Способ получения противовоспалительного и ранозаживляющего средства (патент РФ 2445 113);3.
15. Nitin Kumar, Anurag Chaudhary. Evaluation of anthelmintic activity of *Prunus persica (L.)* //Asian J Pharm Clin Res, Vol 8, Issue 5. 2015;163-165.
16. Шарифов Х.Ш. Экспериментальное исследование фармакологических свойств экстракта из листьев персика обыкновенного. МОЗ –Украины, 17. -Харьков, 2017;6-22.
18. Rasha Haleema., Ashok Shenoy., AR Shabaraya. A Review on Pharmacological Activities of *Prunus persica*. Int. J. Pharm. Sci. Rev. Res. 60(2). Article No. 07. January -February 2020;38-40.